

ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARI VA ULARNING TRANSFORMATSIYASI

Ne'matov Mirfayz Jur'at o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti

Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: nematovmirfayz039@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17572239>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 10th November 2025

KEYWORDS

Elektron hukumat, my3.gov.uz, www.gov.uz, ochiq ma'lumotlar portal, ochiqlik indeksi, elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI), yagona identifikatsiya tizimi (one.id), onlayn xizmatlar indeksi (OSI), telekommunikatsion infratuzilma indeksi (TII).

ABSTRACT

Ushbu maqolada elektron davlat xizmatlari va ularning transformatsiyasi, shuningdek elektron hukumatni rivojlantirish ko'rsatkichlaridagi o'rni va roli, aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, hamda davlat elektron xizmat turning huquqiy asoslari va uning ishlash prinsipi, elektron xizmat turlarining infratuzilmasi va foydalanuvchilarga yaratilgan imkoniyatlar, statistika va tahliliy ma'lumotlardan foydalangan holda ELEKTRON HUKUMAT RIVOJLANISH INDEKSI (EGDI) o'sishiga ta'siri batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar va xorij tajribasini o'rganish orqali ushbu elektron xizmat turlarining joriy muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish usullari hamda elektron davlat xizmatlarning samaradorligini yaxshilash uchun takliflar va xulosalar keltirib o'tilgan.

Kirish. XXI asr – axborotlashuv va globallashuv davrida yashayotgan ko'pchilik odamlar zamonaviy gadjedlardan foydalanadi. Bu vositalar orqali masofadan turib, davlat va jamiyat hayotiga oid eng muhim masalalarda onlayn ishtirok etish imkoniyati paydo bo'lmoqda, bu esa vaqt va xarajatlarni tejash imkoniyatini bermoqda, bu esa samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham davlat o'z fuqarolarining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishi va o'zi taklif qilgan xizmatlarni takomillashtirib borishi shart. Umuman olganda raqamli texnologiyalarning jadal tezlik bilan rivojlanishi ko'plab sohalarda davlat xizmatlarini ham elektron shaklga o'tkazishni kun tartibiga qo'ydi. Shuning uchun ham Respublikamizda "Elektron hukumat" tizimi ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasidagi ko'plab sohalarga taaluqli bo'lgan xizmatlar aynan shu "Elektron hukumat" tizimidagi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (YIDXP)-My.gov.uz sayti orqali amalga oshirilmoqda. **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (YIDXP)** — bu butunjahon internet tarmog'ida rasmiy internet portal bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va biznes uchun elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini taqdim etadi. Portal davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlikni soddalashtirish va keng ko'lamli davlat xizmatlariga yagona raqamli interfeys orqali tez va qulay kirishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Bu tizim tarixi va qanday paydo bo'lgani haqida aytib o'tadigan bo'lsam 2013yilning 1-iyul kuni internet tarmog'ida my.gov.uz veb-manzilida YIDXP 1-talqini test rejimida ishga tushdi. YIDXP O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldagi PF-1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan¹ “Obod turmush yili” Davlat dasturiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda 378-son qaroriga² asosan yaratilgan. Dastlab YIDXP da 40 ga yaqin interaktiv xizmatlar taqdim qilingan. YIDXP faoliyatining birinchi yilida (2014 yil) katta hajmda ishlar amalga oshirildi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati idoralari, jumladan, tuman va shahar hokimliklaridan iborat 500 dan ortiq tashkilot portal tizimiga integratsiya qilindi. Bu davr mobaynida 200 ga yaqin elektron davlat xizmati ishga tushirildi, bu esa o‘z navbatida fuqarolar va tashkilotlar uchun elektron davlat xizmatlaridan kengroq foydalanish imkoniyatini yaratdi. 2017-yil 18-iyulda YIDXP ning yangi 2-talqini my2.gov.uz ([Wayback Machine](http://www.waybackmachine.org) saytida 2018-06-20 sanasida [arxivlangan](#)) veb-manzilida ishga tushdi hamda bugungi kunga qadar faol foydalanib kelinmoqda. YIDXP 2-talqini jismoniy va yuridik shaxslarning ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan hamda portalga kirish foydalanuvchilar yagona identifikatsiyasi qilish tizimi ([OneID](#)) orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, YIDXP 2-talqinida fuqarolar (jismoniy shaxslar) va tadbirkorlar (yuridik shaxslar) shaxsiy kabinetlari ajratilgan va shu bilan birga elektron davlat xizmatlari uchun onlayn to‘lov imkoniyati yaratildi. Yagona portalning 2-talqinida portal foydalanuvchilari hisoblangan ish haqi va pensiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni onlayn tarzda olishlari, to‘lanmagan soliqlar, kommunal xizmatlar, ijro hujjatlari va yo‘l harakatiga oid jarimalarini tekshirishlari mumkin. 2020 yil iyulida, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlarini taqdim etishni takomillashtirish va boshqaruv darajasini oshirish” loyihasi doirasida yangi mexanizmlar joriy etildi. Bu yangiliklar qishloq joylarida yashayotgan aholi uchun davlat xizmatlarini yana-da sifatli va oson olish imkoniyatini yaratdi. 2023-yil 24-oktabr kuni ICT Summit 2023 tadbirlari doirasida YIDXP ning yangi 3-talqini my3.gov.uz veb-manzilida taqdim etildi. YIDXP 3-talqini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan dizaynga ega bo‘lib, MyID yuzni tanish orqali identifikatsiyadan o‘tish, “Muxlisa” ovozli yordamchisi, elektron xizmatlarni baholash kabi imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek ushbu veb-saytning huquqiy asoslarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu veb-sayt **O‘zbekiston Respublikasining Elektron hukumat to‘g‘risidagi 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-395-son³** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni⁴** asosida amalga oshiradi. Ushbu qonunlarning asosiy maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Materiallar va usullar. Dunyo taraqqiyotida bugungi kunda raqamli texnologiyalar orqali davlat xizmatlari sohasini isloh qilish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki axborot texnologiyalari orqali samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va fuqarolar uchun qulay sharoit yaratish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda sezilarli qadamlar tashladi. Davlat rahbari tomonidan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, mamlakatda raqamli transformatsiya jarayoni tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni yaratishda davlat boshqaruvining samaradorligi va shaffofligi hal qiluvchi omil hisoblanadi”. Shu sababli raqamli transformatsiya nafaqat islohotlar, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. So‘nggi besh yil ichida mamlakatimizda elektron davlat xizmatlarining turlari 50 tadan 400 dan

¹ 2013-yil 14-fevral PF-1920-son

² 2012-yil 30-dekabr VMQ 378-son

³ 2015-yil 9-dekabr O‘RQ-395-son

⁴ 2020-yil 5-oktyabr PF-6079-son

ortiqga yetdi. My.gov.uz orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni yiliga kamida 20-25 foizga oshib bormoqda. Masalan, 2022-yilda 11 millionga yaqin fuqaro elektron xizmatlardan foydalangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 18 milliondan oshib ketdi. Bu raqamlar aholining raqamli xizmatlarga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Eng katta yutuqlardan biri - davlat idoralari faoliyatida elektron hujjat aylanishi joriy etilishi bo'ldi. Bugungi kunda barcha vazirlik va idoralar axborot tizimlari integratsiya qilingan holda ishlayapti. Bu nafaqat ish yuritish samaradorligini oshirdi, balki qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarni kamaytirdi. Xususan, "MyGov", "Soliq.uz", "E-auksion" kabi platformalar davlat va jamiyat o'rtasida yangi o'zaro aloqani shakllantirdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar ulushi 2020-yilda 35% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 70% ga yetdi.⁵Bu yurtimizda elektron davlat xizmatlariga bo'lgan e'tiborning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek elektron davlat xizmatlari portallari aholiga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Xususan fuqarolar bu tizimlardan foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tib, o'z fikr va takliflarini qoldirishlari hamda foydalangan xizmat turini baholashlari ham mumkin. Shuningdek davlat xizmatining elektron shakli bo'lgan my3.gov.uz saytida elektron hukumatning G2C (ing.Government to Citizens), G2B (Government to Business), G2F (government to Foreigners) kabi modellari bor. Masalan my3.gov.uz ni misol qilib oladigan bo'lsak 24 ta soha bo'yicha batafsil ma'lumot berilgan, ya'ni bu sohalar qanday ishlashi, qanday tashkilotga tegishli ekanligi, qanday bog'lanish mumkinligi, xizmat ko'rsatish mumkinligi va xizmat ko'rsatishning huquqiy asosini bilib olishimiz mumkin, shuningdek foydalanilgan xizmat turiga baho berishimiz ham mumkin.

Endi my3.gov.uz ning foydalanish tizimlarini batafsil tahlil qilib o'tamiz. Xususan bu saytdan foydalanish uchun bir qancha qo'llanmalar keltirib o'tilgan. Shu jumladan bu tizimga kirish 2 xil usulda amalga oshiriladi biri OneID ikkinchisi MyID orqali amalga oshirilishi aytib o'tilgan. Shuningdek ushbu elektron xizmat turiga qanday kirilishi, qanday ro'yxatdan o'tilishi hamda yuridik shaxs kabinetiga qanday kirlishi haqida batafsil ma'lumot berib o'tilgan. Hamda shuni aytib o'tish mumkinki ushbu xizmat turi 4 tilda ish olib boriladi ya'ni o'zbekcha, qoraqalpoqcha, inglizcha hamda ruscha.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali <https://data.egov.uz/> sayti ham mavjud bo'lib unda xususan bir qancha hayotimiz bilan bog'liq bo'lgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ya'ni bu tizimda fuqarolar bir qancha ma'lumotlar bilan tanishib olishlari mumkin. Shuningdek ushbu tizimda O'zbekistondagi boshqa tizimlarga qaraganda foydaliroq bo'lgan bir qancha jihatlar bor. Xususan bunga misol qilib bu tizimda taklif berish imkoniyati ⁶ham mavjudligini keltirib o'tish mumkin.

Hamda O'zbekiston Respublikasining <https://gov.uz/uz> hukumat portal ham mavjud bo'lib, unda ta'lim, voqealar, xizmatlar shuningdek hayotimiz bilan bog'liq bo'lgan bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek biz ushbu portaldan turizm, davlat organlari vakillari va bir qancha ma'lumotlarni ⁷ bilib olsak bo'ladi.

Bu kabi elektron hukumat portallari bir qancha afzalliklarga ega xususan ular vaqt va mablag'ni tejaydi, qulay va tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatini taqdim etadi, shaffoflikni ta'minlaydi, hujjatlarni onlayn kuzatish imkoniyatini taqdim etadi, fuqarolarning davlat bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/davlat-boshqaruvining-raqamli-transformatsiyasi>

⁶ <https://data.egov.uz/>

⁷ <https://gov.uz/uz>

Natijalar. Ushu bo'limda boshqa davlatlarda mavjud bo'lgan elektron davlat xizmatlari portallarini taqqoslash orqali ba'zi bir natijalar keltirib o'tiladi. Umuman olganda axborot texnologiyalar asrida deyarli barcha davlatlar o'z xizmat ko'rsatish tizimini raqmlashtirishga harakat qilmoqda. Masalan, Elektron hukumat rivojlanish indeksida (EGDI) da dunyo bo'yicha peshqadam bo'lgan Daniyani misol qilib olaylik(uning ko'rsatkichi 0.98). Ushbu davlatda (borger.dk) deb nomlangan elektron davlat xizmati portal faoliyat⁸ olib bormoqda. Endi ushbu tizimning o'ziga xosligiga to'xtaladigan bo'lsak, bu davlat xizmati portali ya'ni borger.dk ning birinchi versiyasi 2007-yil 3-yanvarda fan va texnologiya vazirligi va Daniya Vazirlar Kengashi tomonidan birgalikda ishga tushirilgan. Versiya ikki oldingi fuqarolarga yo'naltirilgan portallarning birlashishi edi ya'ni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga qaratilgan **netborger.dk** va matnlarga qaratilgan **Danmark.dk**. Bu xizmat portalida hayotda yuz beradigan barcha voqealarga batafsil ma'lumot berib o'tilgan. Yana bir o'ziga xos jihati bunda tizim haqida batafsil ma'lumot aytib o'tilganini misol uchun borger.dk haqida faktlar aytib o'tilgan, shuningdek bu davlat xizmati portalining ortida qysi organ turgani ham batafsil aytib o'tilgan. Ya'ni **borger.dk** Daniya Raqamli Agentligi tomonidan taqdim etilishi aytilgan. Shuningdek **borger.dk** haqida faktlarda biz uning ish soatlari va u bilan bog'lanish hamda **borger.dk** hukumat tomonidan ishlab chiqilgan 2000 ga yaqin o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish yechimlarga ishora qiladi va bu yechimlarni saqlash har bir hokimiyat mas'uliyati hisoblanadi. Qo'shimcha qilib aytish mumkinki bu portalda xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilgan. Bundan shuni Daniyada fuqarolar ehtiyojini qondirish birinchi o'rinda turishini ko'rish mumkin. Endi keyingi davlatni misol qilib oladigan bo'lsak, bu Osiyoda pehqadam bo'lgan Janubiy Koreya davlatidir(uning ko'rsatkichi(0.96). Uninng nomlanishi **gov.kr** va bu portalga ⁹kirish uchun individual shaxslar uchun mobil ID, oddiy autentifikatsiya, ID kirish, QR kod bilan kirish, a'zo bo'lmagan login(shaxsiy), birgalikda sertifikat, moliyaviy sertifikat orqali kirish mumkin. Hamda korporatsiya orqali autefikatsiya qilish ham mumkin. Xususan bunda foydalanuvchilarga birgalikda sertifikat, moliyaviy sertifikat, ID kirish, a'zo bo'lmagan login(korporativ) orqali kirish imkoniyati mavjud. Shuningdek bu portalda foydalanuvchilarga quyidagi yengilliklar yaratilgan, shu jumladan bu portalni yaxshilash uchun takliflar berish imkoniyati, shuningdek tegishli sohada shikoyat kiritish mumkin. Hamda ushbu portalda davlat hayoti bilan bog'liq bo'lgan e'lonlar, siyosat ma'lumotlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish markazlari haqida ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Yana bir yaxshi tomoni hukumatning fuqarolik shikoyatlari bo'yicha aloqa markazi hudud kodisiz, bepul, kuniga 24 soat, yiliga 365 kun, shu jumladan bayramlar kuni ham ishlashi aytib o'tilgan.

Elektron davlat xizmatlarini rivojlantirishdagi huquqiy asoslar. Yuqoridagi bo'limlarda tizim haqida batafsil aytib o'tildi. Hamda ushbu tizimning ustunlik va qulaylik tomonlari haqida aytib o'tildi. Endi esa ushbu tizimni rivojlantirishga doir huquqiy asoslar bilan tanishib o'tamiz. Xususan bunga misol qilib "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Shuningdek "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari"¹⁰ va "Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-

⁸ <https://www.borger.dk>

⁹ <https://www.gov.kr>

¹⁰ VMQ 373-son

tadbirlari” to’g’risidagi ¹¹O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham elektron xizmatlar uchun muhim rol o’ynaydi.

Takliflar. Shunday qilib endi tizimni rivojlantirish uchun bir qancha takliflarni berib o’tamiz. Agarda biz tizimga o’zgarishlar kiritmasak, Elektron hukumatni rivojlanish indeksi (EGDI) da egallab turgan pog’onamizga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Xususan ma’lumot uchun O’zbekiston elektron hukumat rivojlanish indeksida 193 davlat orasida 63-o’rinni egalladi. O’zbekistonning elektron hukumatning rivojlanish indeksi (EGDI) 0.79 ¹²ni tashkil etgan. Shuningdek shuni aytib o’tish mumkinki hozirgi zamonda offline tizimga nisbatan online tizm samarali bo’ladi. Ya’ni online tizimda shaffoflik yuqori bo’ladi bu degani korrupsiya holati kuzatilmaydi, 24/7 holatda ishlaydi va ko’proq xalq manfaatlariga xizmat qiladi. Yuqoridagi muammolarga quyidagi yechimlarni taklif etamiz: birinchidan foydalanuvchilarning tizim bilan ishlashini kengaytirish uchun xizmat ko’rsatish muddatini tezlashtirish, ikkinchidan esa ba’zi bir xizmat turlari uchun ariza qoldirishga ancha vaqt ketadi bu esa ularning ishtirokini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun ham bunga yechim sifatida foydalanilgan xizmat turiga ariza qoldirishni osonlashtirish kerak. Shuningdek tizim yaxshilash bo’yicha takliflar tizimini ishga tushirish kerak. Bu tizim davlat xizmati portalini nafaqat yashilaydi balki elektron hukumat rivojlanishi indeksi bo’yicha ham yuqori o’rinlarga olib chiqadi. Hamda yana shuni aytib o’tish mumkinki bizning prezidentimiz tomonidan rejalashtirilgan 2030-yilgacha (EGDI) bo’yicha Top-30 davlatlar qatoriga kirish imkoniyatini beradi. Chunki tizimni yaxshilash bo’yicha takliflarda tizimdagi kamchiliklar bo’yicha fikrlar va yana qaysi xizmat turi kerakligi bo’yicha eng dolzarb takliflar bildirib o’tilishi mumkin. Shuningdek foydalanilgan xizmat turlari bo’yicha shikoyatlar bildirish imkoniyati ham berilishi kerak, bu tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Yana ommaviy xabardorlikni oshirish, ya’ni saytning imkoniyatlari va foydalanish bo’yicha OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Qo’shimcha ravishda tizimda sun’iy intellektdan ham foydalanish kerak. Bu esa nazarimizda Sun’iy intellekt vositalari bilan - (ing. AI tool) “qurollangan” zamonaviy, tezkor, Chat-botlar tizimga biriktirishi kerak, yohud biriktirilganini isloh qilish kerak. Bu kabi texnik vositalar va chora-tadbirlar EGDI ning yana bir komponentlaridan biri bo’lgan, TII (ing Telecommunication Infrastructure Index) ni yuqorilashiga sabab bo’ladi. Shu orqali biz EGDI bo’yicha ko’rsatkichlarni yaxshilashimiz mumkin.


Natijalar va statistika. My3.gov.uz da statistika bo’limi mavjud bo’lib 2025-yil 1-yanvardan boshlab portal foydalanuvchilari haqidagi umumiy statistik ma’lumotlar keltirilgan. Ko’rsatkichlar Google Analytics tahlillari hamda portal tizimida shakllangan ichki ma’lumotlarga asoslangan. Yig’ilgan ma’lumotlar portalni rivojlantirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda xizmatlarni takomillashtirish maqsadida ishlatilishi aytib o’tilgan. Xususan portal samaradorligi statistikasi bo’yicha bu portalda jami foydalanuvchilar soni 11.6 million, tashriflar soni esa 34 millionni, jami xizmatlar soni 775 tani ulardan mobil ilovada 565 tani ¹³tashkil etgan. Shuningdek foydalanuvchilarning qoniqish darajasi bo’yicha umumiy qoniqish darajasi 84% ni tashkil etgan, bir sahifalik tashriflar foizi 8%, portal bo’yicha sharhlar 420.1 ming, shikoyatlar soni esa 308.2 mingni tashkil etgan. 2025-yil 1-yanvardan boshlab arizalar statistikasini ko’radigan bo’lsak jami arizalar 25.3 millionni tashkil etgan, shundan ko’rib chiqilgan arizalar 20.7 million, ko’rib chiqish jarayonidagi arizalar 1.6 millionni, rad etilgan arizalar esa umumiy arizalarning 9% ni tashkil etgan. 2025-yil 1-yanvardan boshlab portalda foydalanganlarning gender bo’yicha statistikasida

¹¹ VMQ 184-son

¹² Gazeta.uz

¹³ <https://my.gov.uz/uz/statistics>

erkaklarning ulushi 56.21% ni ayollarni ulushi esa 43.79% ni tashkil etgan. Endi sizlar bilan quyidagi statistikalarni ko'rib o'tamiz:



Hududlar kesimidagi foydalanuvchilar

Hudud nomi	Foizda
Toshkent shahri	10.33%
Toshkent viloyati	9.22%
Sirdaryo viloyati	2.48%
Jizzax viloyati	4.37%
Samarqand viloyati	10.45%
Farg'ona viloyati	9.16%
Namangan viloyati	7.83%
Andijon viloyati	8.56%
Qashqadaryo viloyati	9.86%
Surxondaryo viloyati	6.44%
Buxoro viloyati	5.56%
Navoiy viloyati	3.43%
Xorazm viloyati	5.9%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5.2%

Xulosa. Ushbu portallar ishga tushirilgandan so'ng, Elektron hukumat sohasida optimallashtirish, avtomatlashtirish va raqamlashtirishga erishildi. Natijada davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari soddalashti, byurokratik to'siqlar kamaydi, inson omilining ta'siri qisqardi hamda fuqarolar va tadbirkorlar uchun xizmatlardan tez, shaffof va qulay tarzda foydalanish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, axborot tizimlari o'zaro integratsiyalashib, yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirildi, bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va fuqarolarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yaratishga xizmat qildi. Shu bilan birga ushbu portal fuqarolar uchun o'z ehtiyoj va fikr-mulohazalarini bildirish imkonini takomillashtirish yo'lidir. Shuningdek, faol fuqarolik pozitsiyasi bu - davlat rivojining muhim omili bo'lgani kabi, raqamli demokratik davlatning asosi - oshkorlik, shaffoflik va ishtirokchilik hisoblanadi. Elektron xizmatlarning rivojlanishi aholining kundalik hayotini yengillashtiradi. Masalan, oldin pasport olish yoki kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun bir necha marta idoralarga borish talab etilgan bo'lsa, bugun bu jarayonlarning ko'pchiligini onlayn amalga oshirish mumkin. Tadbirkorlar uchun esa litsenziya va ruxsatnomalarni olish muddati bir necha oydan bir necha kungacha qisqardi. Raqamli to'lov tizimlari ham shiddat bilan rivojlanmoqda. 2024-yilda onlayn to'lovlarning ulushi umumiy hisob-kitob operatsiyalarining 70 foizini tashkil qildi. Bu ham davlat xizmatlaridan foydalanishda shaffoflik va qulaylikni ta'minlayapti. O'zbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan taqqoslasak, tubdan farq va umumiy jihatlarni ko'rish mumkin. Masalan, Estoniyada barcha davlat xizmatlarining 99 foizi elektron shaklda taqdim etiladi. Janubiy Koreya elektron hukumat tizimi orqali fuqarolarning davlat idoralariga murojaat vaqti 70 foizga qisqarganini qayd etgan. Singapurda esa raqamli davlat platformalari orqali barcha davlat xizmatlari "bir darcha" asosida taqdim etiladi. Buning natijasida YAIM 2-3% ga o'sgani qayd etilgan. O'zbekiston bu mamlakatlar tajribasini o'rganib, milliy sharoitga moslashtirmoqda. Masalan, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (my.gov.uz) Estoniyaning X-Road tizimiga o'xshash integratsiya modeli asosida ishlayapti. Ayniqsa qishloq hududlarida internet infratuzilmasini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa fuqarolar uchun qulaylik, davlat uchun samaradorlik, jamiyat uchun esa shaffoflik va ishonchni ta'minlaydi. Shu boisdan ham yurtimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar nafaqat bugungi kun balki ertangi rivojlanish uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbaalar.

1. "Obod turmush yili" davlat dasturi to'g'risida 2013-yil 14-fevral PF-1920-son
2. "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portal faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2012-yil 30-dekabr VMQ 378-son
3. "Elektron hukumat" to'g'risidagi O'rq-395-son
4. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son
5. <https://yuz.uz/uz/news/davlat-boshqaruvining-raqamli-transformatsiyasi>
6. <https://data.egov.uz/>
7. <https://gov.uz/uz>
8. <https://www.borger.dk>
9. <https://www.gov.kr>
10. "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatni reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2021-yil 16-iyun VMQ 373-son
11. "Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2016-yil 2-iyun 184-son
12. Gazeta.uz

13. <https://my.gov.uz/uz/statistics>

14. my3.gov.uz

15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>



INNOVATIVE
ACADEMY